

TO'RTKO'L TUMANIDAGI OYKONIMLARNING NOMLANISHIGA KO'RA TASNIFI

*Djumaniyazova Elmira Allabergenovna – Nukus davlat instituti O'zbek tili va
adabiyoti magistranti*

Joylarga qo'yilgan har qanday nom o'tmish hayotda ham bugungi kunda ham biz uchun ma'naviy meros bo'lib kelgan. Nafaqat ma'naviy meros, balki madaniy boyligimiz, desak mubolag'a emas. Zotan, tariximizni o'zida jamlagan bu meros ko'hna yodgorliklar safidan joy oladi. Joy nomlari o'zida ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayotni, urf-odat va an'anani, qadriyatlarni, insonlar turmush tarzini ifoda etadi: "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boylar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"¹¹⁸.

Qadimiy tarixga ega bo'lgan ona tilimiz – o'zbek tili Davlat tili huquqini olgach (1989- yil 21- oktabr), shuningdek, "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida" qonuni qabul qilingach¹¹⁹, barcha joy nomlari qayta ko'rib chiqish, ularning ba'zilarini almashtirish, tahlil qilish, ularni to'plash, ilmiy tahlilga tortish kabi muammolarga e'tibor berish dolzarb masalalardan biri bo'ldi. Bugungi kunda yoshlarda yashayotgan shahri, qishlog'i, ko'chalarini nega aynan shunday nomlanligini bilishga qiziqishni orttirish va o'rganish talab etadigan muammolardan biri sanaladi. Bu borada qilinishi kerak bo'lgan ishlar talaygina.

Tarixdan ma'lumki, xalqlar barcha narsaga nom qo'yib kelgan, xoh u jonli bo'lsin, xoh u jonsiz. Sababi, kishilar o'zaro muloqotga kirishish uchun odamlarni ham, narsa-hodisalarni ham va butun borliqni ma'lum bir me'yordagi nomlar bilan atab, bir-biridan farqlashga harakat qilishgan. Natijada, bu nomlar har bir xalqning milliylikini o'zida aks ettirgan. Mana shu nomlar milliy o'zlikni anglash vositalardan biri hisobladi.

Oykonimlar barcha toponimlar orasida tarixiy, lisoniy (lingvistik) jihatdan eng qimmatli yodgorliklar sanaladi¹²⁰. Shu bilan birga oykonimlar toponimlarning eng o'zgaruvchan turi ham hisoblanadi. O'zbekistonda oykonimlarning soni 25-30 mingga yetgan¹²¹ Qoraqalpog'iston hududining ham bu miqdorda o'z ulushi bor, albatta. Xususan To'rtko'l tumanining o'zida 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra oykonimlar soni 2207 tani tashkil etmoqda¹²². Bulardan bittasi To'rtko'l tumani bo'lsa, qolganlari 5 ta shaharcha, 15 ta ovul fuqarolar yig'ini, 22 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 86 ta aholi punktlari, 2078 ta ko'cha, tor ko'cha va berk ko'cha nomlariga to'g'ri kelar ekan. (keyingi o'rinlarda ovul fuqarolar yig'ini (OFY), mahalla fuqarolar yig'inini (MFY), aholi punktlarini (AP) deb ketamiz)

¹¹⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 30-b.

¹¹⁹ O'zbekiston Respublikasining qonuni. Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida. Toshkent shahri, 2011-yil 12-oktabr.

¹²⁰ Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milly jamiyati nashriyoti, 2006. -51-b.

¹²¹ Mazkur adabiyot. 52-b.

¹²² Xalq deputatlari To'rtko'l tumani kengashining 2020-yil 8-oktabr kungi 12/57-1-sonli qaroriga ilova. To'rtko'l tumanida nomlangan va qayta nomlangan hududlar ro'yxati.

To'rtko'l tumanidagi oykonimlarning nomlanishiga e'tibor bergan holda ularni quyidagicha turlarga ajratsak, bu bo'linishni geografiya fanlari doktori, professor Hamidulla Hasanov, filologiya fanlari nomzodi, geografiya fanlari doktori Suyun Qorayev va Ikrom Xolmurotov qarashlariga mos tarzda tasniflasak. Hamidulla Hasanov joy nomlarini vujudga kelishiga qarab quyidagi turlarga shartli bo'lib ko'rsatgan: joyning holat, xususiyati va iqlimiga bog'liq nomlar; o'simlik va hayvonlarga bog'liq nomlar; foydali qazilmalarga bog'liq nomlar; hunar, kasbdan va ma'muriyatdan olingan nomlar; xalq, qabila va urug'larga bog'liq nomlar; shaxsning ism-familiyasiga qo'yilgan nomlar; afsonaviy va diniy nomlar; g'aroyib nomlar; yangi zamon nomlari¹²³ bo'lsa, Suyun Qorayev o'zining toponimika nomli o'quv qo'llanmasida oykonimlarni oldin katta ikki guruhga, ya'ni 1) tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar, 2) ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlarga ajratadi. O'z navbatida birinchi guruhga gidrooykonimlar, orooykonimlar, fitooykonimlar, zootoponimik oykonimlarga afrassa, ikkinchi gurugni kishilarning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar¹²⁴ deb tasniflagan.

Ikrom Xolmurotov bo'lsa etnooykonim; antrooykonim; fitooykonim; sotsooykonim; ko'chma oykonim; geooykonim; professionolizmlar asosida yuzaga kelgan oykonimlar; muqaddaslastirilgan oykonimlar; zoooykonimlar; neooykonimlar; obyektning son belgisiga ko'ra yaratilgan topooykonimlarga¹²⁵ ajratib tasniflaydi. Biz ham yuqoridagi bo'linishga amal qilgan holda tumandagi oykonimlar nomlanishini inobatga olib quyidagicha ajratdik: 1) etnooykonim; 2) antrooykonim; 3) fitooykonim; 4) sotsooykonim; 5) ko'chma oykonim; 6) geooykonim; 7) kasb-hunr asosida yuzaga kelgan oykonimlar; 8) muqaddaslastirilgan oykonimlar; 9) zoooykonimlar; 10) neooykonimlar; 11) obyektning son belgisiga ko'ra yaratilgan topooykonim; 12) gidrooykonim. Mazkur maqolada esa To'rtko'l tumanidagi shaharcha, ovul fuqorolar yig'ini, mahalla va aholi punktlari va ko'chalarga to'xtalib o'tishni joiz topdik.

Etnooykonimlar asosida yaratilgan joy nomlari xalqlarning turli-tuman urug' va qabilalardan tashkil topgan. Har bir kishi o'z urug'-ajdodini yetti otasigacha bilishi farz hisoblangan. Davrlar o'tishi bilan urug' va qabila nomlarining bir qismi unitilib ketgan. Ammo urug' nomlari – etnonimlarning aksariyati joy nomlariga ko'chgan va haligacha mavjudligini yo'qotmagan.

Qoraqalpog'iston toponimlari orasida etnooykonimlar katta o'rinni egallaydi. Ammo To'rtko'l tumanida bunday etnooykonimlar soni unchalik ko'p emas. Bu yerdagi aholi asosan, o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va turkman bo'lganligi uchun nomlari ham shunga mos. Hududda **Qozoq ovul** (ko'na To'rtko'l OFY), **Mang'it** (Ullibog' OFY), **Qipchoq** (Kaltaminor OFY), **Turkmanovul** (Oqqamish OFY), **Qatag'on**, **Yelesen** (Oqqamish OFY), **Turkman ko'li** (O'zbekiston OFY), **Qozoq arna**, **Turkmanquli** (Tozabog'yop OFY) kabi oykonimlar mavjud. Shu bilan birga qardosh bo'lmagan xalq nomlarini ham uchratishimiz mumkin. Ulardan **Lotin AP** (Otayurt OFY), **Rus avliyo** (Ullibog' OFY) kabilar ham uchrashadi. Turkiy xalqlar va genetik jihatdan turkiy bo'lmagan elatlar o'tmishda yaxlit hududlarda yashashgan bo'lsa ham hozirda ko'pchiligi hududiy jihatdan aralash holda yashashadi. Lekin topooykonimlarda urug' nomlari saqlanib qolgan.

¹²³ Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. — Toshkent, 1965. 50-b.

¹²⁴ Mazkur adabiyot. 50-57-b.

¹²⁵ Xolmurotov I.O. Janubiy Qoraqalpog'iston oykonimlarining talqini, tasnifi tahlili. Toshkent: Firdavs-shoh nashriyoti, 2020. — 54-b.

Antrooykonimlar asosida yaratilgan toponimlarga ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Qoraqalpog'iston oykonimiyasida kishi nomlari va laqablari asosida yaratilgan antrooykonimlar talaygina bo'lib, ularning leksik-semantik jihatlari ham turlicha. Kishi ismlarining toponimlarga aylanishi onomastikada juda ko'p kuzatilgan hodisa. Ulardan **Beruniy, Ibn sino** nomli MFYlari, **Furqat, Oxun** APlari, **Ulug'bek, Abay, Umar Hayyom, Alpomish, Uyg'un** kabi ko'cha nomlarida ko'rishimiz mumkin. Bunday misollarni yana davom ettira olamiz. Umuman olganda kishi ismlari, laqablari asosida nomlangan toponimlar eng tarixiy toponimlar hisoblanadi. Bu toponimlar turli davrlarda nomlangan, aksariyatini nomlanish vaqtini ko'rsatish murakkablik tug'diradi.

Fitooykonimlar – o'simlik nomlarining toponimlarda aks ettirilishi. Bunday toponimlar orqali xalq hayotidagi dehqonchilik, bog'dorchilik mashg'ulotlarining o'rnini sezishimiz mumkin. Tuman fitooykonimlaridan **Ullubog' Oqqamish, Tozabog'yop, Paxtaobod, Ko'kcha** OFYlari; **Guliston, Bog'yop** mahallalari, **Yakkatol, Oqoltin, Tutzor, Paxtachi** APlari; **Rayhon, Uzumzor, Olmazor, Boychechak, Atirgul, Majnuntol** kabi ko'chalaridan bir qancha misollar keltirish mumkin.

Sotsoykonimlar. Jamiyatga xos o'zgarishlar sotsial o'zgarishlar bo'lgani kabi, ular ta'sirida nomlangan toponimlar sotsotoponimlar deyiladi¹²⁶. Bularga tumandagi **Navro'z, Bahor, Do'stlik, G'alaba** APlarini; **Tinchlik, Istiqlol, Mustaqillik** mahallalarini atab o'tishimiz mumkin. Yuqoridagi oykonimlar jamiyat bilan bog'liqlikda yuzaga kelgan va nomlangan.

Ko'chma oykonimlar. Bunday oykonimlarda bir toponim nomini ikkinchi bir toponim nomiga ko'chishidan yuzaga keladi. Masalan Orol dengizi nomini tumandagi **Orol** OFY va ko'cha nomiga ko'chishini kuzatamiz. Yana **O'zbekiston** OFY va ko'cha nomi O'zbekiston Respublikasi ta'sirida ko'chgan. **Toshkent** – Qumbosqan OFYdagi ko'cha va shu nomdagi mahalla nomiga ko'chgan. **Xiva** – bu toponim qadimiy shahar ta'sirida nomlangan va shahar nomi ko'cha nomiga ko'chgan. **Sho'roxon** – bu toponim Sho'rolar ta'sirida nomi ko'chirilgan. Shu bilan birga **Turkiston, Qo'qon, Xonqa yo'li, Jayhun, Navoiy, Guliston, Ayritom, Kaltaminor** oykonimlari ham shular jumlasidan.

Geooykonimlar. Yerning tuzilishi, holati va geomorfologik xususiyatlari joy nomlarida o'z aksini topadi. Bunday geooyknimlarga **Qumbosqan** OFY, **Toza yer, Yangi yer, Yoymataqir, taqir, Bo'z, Mirishkor, Qumli, Sohil** APlarini misol keltirishimiz mumkin. Bu geooykonimlar shu hudud tuprog'i holati, obyektning joylashish o'ri, tabiiy boyliklariga ko'ra nomlangan. Bu esa bizga shu joyning yer tuzilishi haqida tushunchaga ega bo'lishimizga yordam berishi shubhasiz.

Kasb-hunr asosida yuzaga kelgan oykonimlar tumanda ko'plab topiladi va xalq hayotidan hikoya qiladi. Hududdagi aholi mashg'ulotlari haqida hikoya qiladi. Xususan, bu yerda **Paxtachi, Paxtakor** (paxtachilik bilan bog'liq), **Chorvador** (chorvachilik bilan bog'liq), **Bobodehqon** (dehqonchilik bilan bog'liq), **Miskarlar, Temirchilar, Hunarmandlar** (temirchi – hunarmandlar bilan bog'liq),

¹²⁶ Xolmuratov I.O. Janubiy Qoraqalpog'iston oykonimlarining talqini, tasnifi tahlili. Toshkent: firdavs-shoh, 2020. – 54-b.

O'qituvchilar, Ustozlar kabi APlari va ko'cha nomlaridan misollar keltirish mumkin. Bunday nomlar barcha yerlarga qo'yilavermagan faqat o'z kasbining fidoyilari bo'lgan hududlargina shunday nomlangan.

Zoooykonimlar – hayvon nomlarining oykonimlarda aks ettirilishi. To'rtko'lda **Otchopar, Jayron, Tulpor, Qaldirg'och** kabi toponimlar zoooykonimlardan sanaladi. Neooykonimlar yangidan tashkil topgan oykonimlar bo'lib, ular joy nomlarini qayta nomlash zaruratidan paydo bo'lgan. Tumandan bunday toponimlar mingdan ziyodni tashkil etadi.

Obyektning son belgisiga ko'ra yaratilgan topooykonimlar. Bunday toponimlarga **Uchgujum, yakkatol, Beshyog'och, Beshqayrag'och, Beshariq, Beshchinor, Qirqo'zak, Qirqog'ayni, Qirqqiz** kabilarni ko'rsatib o'ta olamiz. Bunday toponimlar uzoq tarixga ega bo'lib, raqamlarda afsonalar yashirin. Hidrooykonim. Suv havzalarining nomlari oykonimlarda uchrashadi, natijada bu toponimlar ham oykonimni ham gidronimni nomlab keladi. ularga **Ummon, Bo'zyop, Uzunduduq, Tuyamo'yin, Anhorli, Tozabog'yop** va boshqa ko'chalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Aholi punktlari, mahallar ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Shu sababdan shahar, qishloq, mahallalarning tarkib topishi, joylashishi, atalish qonuniyatlari tabiiy ravishda tarixiy va siyosiy sharoit bilan bog'liq holda o'rganishni talab etadi. Shundagina ilmiy va amaliy natijaga erisha olamiz. Shu bilan birga, qanday obyekt nomlanganiga, qay tarzda va qaysi til vositalari yordamida nomlanganiga, nima uchun nomlanganiga javob topishni geografiya, tilshunoslik va toponimika sohalaridan izlashimiz o'rinli bo'ladi, albatta.

Adabiyotlari:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 30-b
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida. Toshkent shahri, 2011-yil 12-oktabr
3. Qorayev S. Toponimika. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milly jamiyati nashriyoti, 2006. -51-b
4. Xalq deputatlari To'rtko'l tumani kengashining 2020-yil 8-oktabr kungi 12/57-1-sonli qaroriga ilova. To'rtko'l tumanida nomlangan va qayta nomlangan hududlar ro'yxati.
5. Xolmurotov I.O. Janubiy Qoraqalpog'iston oykonimlarining talqini, tasnifi tahlili. Toshkent: Firdavs-shoh nashriyoti, 2020. – 54-b
6. Hasanov H. O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan. Toshkent 1965 50-b
7. Hakimov Q. Toponimika. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. 105-b.
8. Ruzmetov, B., Jumaeva, Z. K., & Xudayarova, M. (2021). International Experience in Attracting Foreign Direct Investment. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(4), 38-43.